


## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-aprel)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3082,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 115,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 51,2 % ni tashkil etdi.



**B**–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havonikonditsiyalashning 9,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 22,4 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, tog`-kon sanoatida 5,1 % ga hamda suv bilan ta`minlash, kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish sanoatida 36,4 % ga pasayishi kuzatildi.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,7mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021-yilning yanvar-apreloylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1579,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 51,2 % ini tashkil etdi.

O'tganyilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 77,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 4,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 19,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 1,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 268,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 17,0 %), quyi texnologiyali 1213,8 mlrd.so'm (jamiga nisbatan ulushi 76,9 %) nitashkiletdi.


## Yuqori texnologiyali




## O'rta-yuqori texnologiyali



## O'rta-quyi texnologiyali



## quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi  
mahsulotlarning o'lish sur'ati**

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 289,4 ming l 100% spirti (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 29,7 % ga kamaygan), 260,9 tonna bint (11,9 %) kamaygan bo'lsa, 18,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (22,5 %) ishlab chiqarilishida kamayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar- aprel	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	24,4	18,9	-5,5
Aroq, ming l. 100% spirt	411,9	289,4	-122,5
Sellyuloza, ming tonna 90%	665,4	500,4	-165,0
Paxta tolasi, ming tonna	4,2	9,9	5,7
Paxta chigiti, ming tonna	7,7	12,6	4,9
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,3	0,9	0,6
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	13,6	7,2	-6,4
Etilen polimer qoplar, ming tonna	5,5	4,9	-0,6
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	5421,1	5946,0	524,9
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	42,9	55,1	12,2

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy  
va spelta uni

**18,9**  
*ming tonna*



Aroq

**289,4**  
*ming l. 100 % spirt*




Sellyuloza

**500,4**  
*ming tonna 90 %*



Paxta chigiti

**12,6**  
*ming tonna*



Paxta tiviti (lint)

**0,9**  
*ming tonna*



Paxta tolasi

**9,9**  
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**4,9**  
*ming tonna*



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

**5946,0**  
*mln.kVt/s*



Bug‘ va issiq suv  
(issiqlik energiyasi)

**55,1**  
*ming Gkal*




Yirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqa

**7,2**  
*ming tonna*

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar-aprel oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1441,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (46,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,6 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	5421,1	5946,0	524,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	42,9	55,1	12,2

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,

## chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.




2021-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,4 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1056,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 18,9 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 34,2 % ni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 5,6 % ni (2020-yil yanvar-aprel oyida 4,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 30,4 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,5 % ni hamda Mirzaobod tumani 12,0 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (118,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Boyovut tumanida (189,5 %), Sirdaryo tumanida (145,4 %) va Sayxunobod tumanida (113,4 %), Mirzaobod tumanida (107,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1056,3</b>	<b>100,0</b>	<b>118,9</b>
Guliston sh.	174,5	16,5	101,7
Shirin sh.	8,3	0,8	100,0
Yangiyer sh.	61,1	5,8	104,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	86,8	8,2	189,5
Guliston	68,7	6,5	102,7
Mirzaobod	127,2	12,0	107,5
Oqoltin	70,7	6,7	102,7
Sardoba	30,2	2,9	101,2
Sayxunobod	58,5	5,5	113,4
Sirdaryo	321,4	30,4	145,4
Xovos	48,8	4,6	101,1

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 403,5 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 13,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 52,2%), Guliston shahri (35,8 %), Sayxunobod tumani (36,1 %) hamda Sardoba tumanlarida (23,3 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar-aprel <i>mlrd. soʻm</i>	Fizik hajm indeksi, <i>% da</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3081,8</b>	<b>115,7</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>257,3</b>	<b>97,0</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>1351,0</b>	<b>120,7</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>154,0</b>	<b>97,3</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut</b>	<b>169,2</b>	<b>105,9</b>
<b>Guliston</b>	<b>107,8</b>	<b>142,8</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>132,5</b>	<b>85,2</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>158,3</b>	<b>121,5</b>
<b>Sardoba</b>	<b>88,0</b>	<b>174,9</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>118,7</b>	<b>102,2</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>404,8</b>	<b>100,9</b>
<b>Xovos</b>	<b>140,2</b>	<b>121,3</b>

## Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 43,8 %), Sirdaryo tumani (13,1 %), Guliston shahri (8,3 %), Yangiyer shahri (5,0 %), hamda Oqoltin tumani (5,1 %), Boyovut tumani (5,5 %), va Xovost (4,5 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Sardoba (2,9 %) Guliston (3,5 %) hamda Sayxunobod tumanlariga (3,9 %) to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va  
iste'mol mollari ishlab chiqarish**  
(2021-yil yanvar-aprel oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3574,1</b>	<b>1224,7</b>
<b>Guliston sh.</b>	2811,7	1907,5
<b>Shirin sh.</b>	71482,5	441,5
<b>Yangiyer sh.</b>	3475,9	1380,3
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut</b>	1282,8	339,9
<b>Guliston</b>	1448,6	923,2
<b>Mirzaobod</b>	1760,1	2246,8
<b>Oqoltin</b>	2987,3	1333,2
<b>Sardoba</b>	1311,7	449,6
<b>Sayxunobod</b>	1509,7	744,8
<b>Sirdaryo</b>	3107,3	2466,4
<b>Xovos</b>	1442,0	502,5

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi (2020-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab  
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**  
(2021-yil yanvar-aprel oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>967,2</b>	<b>31,4</b>
Guliston sh.	109,0	42,3
Shirin sh.	9,4	0,7
Yangiyer sh.	59,8	38,8
<b>tumanlar:</b>		
Boyovut	157,7	93,2
Guliston	59,4	55,1
Mirzaobod	67,3	50,8
Oqoltin	63,2	39,9
Sardoba	88,0	100,0
Sayxunobod	43,4	36,6
Sirdaryo	194,9	48,1
Xovos	115,1	82,1



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1050,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0%), Mirzaobod tumani (52,9 %), Boyovut tumani (93,9 %), Sayxunobod tumani (78,5 %), Xovos tumani (89,5 %) Guliston shahri (54,2 %) hamda Sirdaryo (51,3 %) tumanda kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yangiyer shahri (43,6%), Guliston tumani (21,4 %), Oqoltin tumani (43,2 %), hamda Shirin shahrida (0,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2150 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 557 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 25,9 %) Guliston shahriga, 369 tasi (17,1 %) Sirdaryo tumaniga, 183 tasi (8,5 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021-yil yanvar-aprel oylarida viloyatda 206 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 23,3 foizi Guliston shahriga, Oqoltin tumani, Guliston tumani va Sirdaryo tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23